

KOXLEAR IMPLANTGA EGA BO'LGAN BOLALARNING O'QUV-NUTQIY BILUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING TAJRIBA-SINOV NATIJALARI

Abdullayeva Umida Qahramonovna

Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tezisdan ko'xlear implantga ega bo'lgan bolalarning o'quv-nutqiy biluv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan korreksion-pedagogik texnologiyaning tajriba-sinov jarayonida qo'llanilishi va uning natijalari yoritilgan. Tajriba va nazorat guruhlarida kesimida olingan qiyosiy natijalar ishlab chiqilgan texnologiyaning an'anaviy yondashuvga nisbatan yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, diagnostik mezonlari va matematik-statistik tahlil natijalari batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ko'xlear implant, o'quv-nutqiy biluv ko'nikmalari, korreksion-pedagogik texnologiya, tajriba-sinov ishlari, pedagogik samaradorlik, tajriba va nazorat guruhlarida, matematik-statistik tahlil.

Аннотация. В тезисах освещается применение коррекционно-педагогической технологии формирования учебно-речевых познавательных навыков у детей с кохлеарным имплантом в ходе экспериментальной работы и её результаты. Сравнительные данные, полученные по экспериментальной и контрольной группам, свидетельствуют о более высокой педагогической эффективности разработанной технологии по сравнению с традиционным подходом.

Ключевые слова: кохлеарный имплант, учебно-речевые познавательные навыки, коррекционно-педагогическая технология, экспериментальная работа, педагогическая эффективность, экспериментальная и контрольная группы.

Abstract. The thesis presents the implementation of a correctional-pedagogical technology for forming educational-speech cognitive skills in children with cochlear implants during the experimental work and its results. Comparative data obtained across experimental and control groups demonstrate that the developed technology has higher pedagogical effectiveness compared to the traditional approach. The organization of the experimental work, diagnostic criteria, and results of the mathematical-statistical analysis are described in detail.

Keywords: cochlear implant, educational-speech cognitive skills, correctional-pedagogical technology, experimental work, pedagogical effectiveness, experimental and control groups, mathematical-statistical analysis.

Kirish. Koxlear implantga ega bolalarning o'quv-nutqiy biluv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan nazariy model va korreksion-pedagogik texnologiyaning amaliy samaradorligini aniqlash tajriba-sinov ishlarini tashkil etishni taqozo etadi. Tajriba-sinov ishlari 2023–2026-yillar davomida umumiy o'rta ta'lim maktablarida koxlear implantga ega o'quvchilar ishtirokida, tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish orqali amalga oshirildi.

Tajriba guruhida ishlab chiqilgan texnologiya asosida individual korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etilsa, nazorat guruhida an'anaviy korreksion ish tizimi saqlanib qolindi. Mashg'ulotlar logoped-defektolog, sinf rahbari va ota-onalar hamkorligida tizimli tashkil etildi. Bu esa ikki yondashuvning samaradorligini xolisona qiyoslash imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi koxlear implantli bolalarning eshituv-idrok, nutqiy-kommunikativ, kognitiv-bilish, talaffuz-fonetik, o'quv-amaliy hamda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni ishlab chiqilgan diagnostik mezonlar asosida aniqlash va ularni tajriba hamda nazorat guruhlarida kesimida qiyosiy tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Mavzuning dolzarbligi. Koxlear implantga ega bolalar bilan ishlashda ko'plab metodik tavsiyalar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati amaliy tekshiruvdan o'tmagan, statistik jihatdan asoslanmagan tavsiyalar tarzida qolmoqda. Bu esa amaliyotchi pedagoglarni ishonchli, tajriba-sinov natijalari bilan tasdiqlangan texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirmoqda.

Shu munosabat bilan koxlear implantli bolalarning o'quv-nutqiy biluv ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasining pedagogik samaradorligini tajriba-sinov ishlari, qiyosiy va matematik-statistik tahlil orqali ob'ektiv baholash dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida yuzaga chiqadi. Ayniqsa, natijalarning statistik ishonchliligini ta'minlash, tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasidagi farqlarning tasodifiy emasligini isbotlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, koxlear implantli bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarining – logoped, surdopedagog va sinf rahbarlarining – kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi ham ushbu texnologiyaning muvaffaqiyatli joriy etilishi bilan bevosita bog'liq. Mutaxassislar tayyorgarligining yetarli emasligi tajriba-sinov ishlarining amaliy natijadorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida alohida e'tiborga loyiqdir.

Shuningdek, koxlear implantli bolalarning hududlar kesimidagi (masalan, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlari) natijadorlik ko'rsatkichlarini qiyosiy o'rganish texnologiyaning turli mintaqaviy sharoitlarda qo'llanilishi mumkinligini tasdiqlash uchun zarur ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Xulosa. Tajriba-sinov ishlari natijalari ishlab chiqilgan korreksion-pedagogik texnologiyaning qo'llanilishi ko'xlear implantli bolalarning eshituv-idrok, nutqiy-kommunikativ, kognitiv-bilish, talaffuz-fonetik, o'quv-amaliy hamda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori samaradorlikka erishilganini ko'rsatdi.

Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, ularning ishonchliligi tasdiqlandi. Tajriba-sinov jarayonida ishtirok etgan mutaxassislarining kasbiy kompetentligi darajasida ham ijobiy dinamika qayd etildi, bu esa texnologiyaning nafaqat bolalar, balki ular bilan ishlovchi pedagoglar uchun ham rivojlantiruvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov ishlari natijalari ishlab chiqilgan texnologiyani umumiy o'rta ta'lim maktablarida ko'xlear implantli bolalar bilan ishlash amaliyotiga tavsiya etish uchun yetarli ilmiy-amaliy asos yaratdi. Texnologiyaning keng amaliyotga joriy etilishi ko'xlear implantli bolalarning ta'lim sifatini oshirish va ularni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Королева И.В. Прогноз эффективности слухоречевой реабилитации после кохlearной имплантации у детей младшего возраста // Дефектология. – 2002. – №4. – С. 28–39.
2. Королева И.В. Реабилитация глухих детей и взрослых после кохlearной и стволомозговой имплантации. – Санкт-Петербург: КАРО, 2015. – 870 с.
3. Красильникова О.А., Люкина А.С. Результаты исследования коммуникативных умений младших школьников с кохlearными имплантами // Электронный ресурс. – 2025.
4. Зонтова О.В. Коррекционно-педагогическая помощь детям после кохlearной имплантации. – СПб.: СПб НИИ уха, горла, носа и речи, 2008. – 78 с.
5. Руленкова Л.И., Смирнова О.И. Аудиология и слухопротезирование. – М.: Академия, 2003. – 234 с.
6. Шматко Н.Д., Пелымская Т.В. Если малыш не слышит...: Пособие для учителя. – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 2003. – С. 201–203.
7. Muminova L.R. va boshq. Logopedik albom. – Toshkent, 2021.
8. Muminova L., Urazova M. Sun'iy intellekt ta'lim jarayonida cheklangan imkoniyatga ega bolalarni o'qitishda // Towards a new economy, pedagogy and technology. – 2025. – №4 (1). – P. 98–107.

9. Allum DJ (ed.) Cochlear Implant Rehabilitation in Children and Adults.
– London: Whurr Publishers Ltd, 1996.

10. Bouchard M.-E., Ouellet C., Cohen H. Speech Development in Prelingually Deaf Children with Cochlear Implants // Language and Linguistics Compass. – 2009. – Vol. 3, Issue 1. – P. 1–18.

11. Feklistova S.N. Gotovnost uchiteley-defektologov k organizatsii korrektsionno-razvivayushchey raboty s detmi posle operatsii kokhlearnoy implantatsii // Obrazovanie i nauka v Belarusi. – Mn.: BGPU, 2010.

